

QO‘LLANMAGA IZOH
«TADQIQOTCHI TALABA» DASTURI
RESEARCH STUDENTS 2026

Ushbu hujjat dasturga hujjatlarni tayyorlashda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan ko‘rsatmalar va qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilgan izoh deb hisoblanadi.

Dastur haqida to‘liq ma’lumotni Ingliz va Yapon tilidagi ko‘llanmada (Application guidelines) diqqat bilan o‘qib chiqing.

Yaponiya Hukumati (Monbukagakusho: MEXT) Yaponiya universitetlarida chet el talabalari uchun ilmiy daraja olmasdan tadqiqotchi talaba sifatida yoki ilmiy daraja olish yuzasidan oddiy talaba sifatida (magistratura, aspirantura, doktorontura) ta’lim olishni taklif etadi

TARTIB VA SARALASH MEZONLARI

(qo‘llanmaning 3,8,9,10,11,12 bandini qo‘ring)

Nomzod saralash birinchi bosqichida Yaponiya elchixonasi so‘rovnoma ma’lumotlari, yozma imtihon (ingliz va yapon tilidan test) va suhbatlashish yakunlari bo‘yicha tanlov asosida saralash o‘tkazadi. Har bir nomzod yapon va ingliz tili bo‘yicha imtihon topshirishi lozim. (Yapon tilidan bilim darajasi kamida boshlangich bo‘lishi kerak).

Yozma testlarga tayyorlanish uchun o‘tgan yilgi testlar savolnomalarini va ularning javoblarini quyida ko‘rsatilgan saytdan ko‘rib yuklab olishingiz mumkin:

<http://www.studyinJapan.go.jp/en/planning/scholarship/application/examination/>

DASTUR REJASI

17 aprel 2025	Dasturning e’lon qilinishi
23 may	Hujjatlarni qabul qilish yakunlanishi
11 iyun	Anketalar tanlovi natijalarining e’lon qilinishi <u>(nomzodlar o‘zlari telefon qilishadi)</u>
22 iyun	Yozma imtihon <u>(Imtihon o‘tkaziladigan vaqt va joy keyinroq ma’lum qilinadi)</u>
iyun oxirlari	Yozma imtihon natijalari ma’lum qilinishi
iyul boshlari	Suhbatdan o‘tish
2026 yil yanvar - fevral	Tanlovning yakuniy natijalari ma’lum qilinishi
2026 y. aprel - oktyabr	Yaponiyaga yetib kelinishi

So‘rovnoma-arizani va barcha ilova qilinadigan hujjatlarni quyidagi saytdan yuklab olishingiz mumkin:
<http://www.studyinJapan.go.jp/en/smap-stopj-applications-research.html>

HUJJATLAR RO‘YXATI

(qo‘llanmaning 9 bandini qo‘ring)

Nomzod Elchixonaga quyida ko‘rsatilgan hujjatlarning 3 ta to‘plamini 2025 yil 23 may soat 17:00 gacha taqdim etishi lozim. Elchixonaga topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi. Hujjatlarning bitta to‘plami asl nusxada, qolgan ikkitasi ko‘chirilgan nusxada taqdim etilishi lozim (3ta rasm har bitta nusxaga).

No	Hujjatlar	1 asl nusxa	2 ko‘chirilgan nusxa	Izohlar
①	So‘rovnoma-ariza (Application form)	1	2	2026 y. belgilangan namunadagi blank. (*3) Fotosurat har bir to‘plamda bitta asl nusxadan bilan.
②	Institutlarni tanlash (Placement Preference Form)	1	2	2026 y. belgilangan namunadagi blank. Saralash birinchi bosqichida suhbatga muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarga taqdim etishadi
③	O‘rganish sohasi va tadqiqot rejasi	1	2	2026 y. belgilangan namunadagi blank. (*4)
④	Baholari ko‘rsatilgan	1(tasdiq-	2	Ingliz yoki yapon tillardan biriga tarjimasi OO‘Yu da

	diplomga ilova	langan asl nusxasi)		tasdiqlanishi lozim! (*5)
⑤	OO‘Yu bitiriganlik haqida diplom	1(tasdiqlangan asl nusxasi)	2	Diplom nusxasi OO‘Yu da tasdiqlanishi lozim! Hali diplom olmagan nomzodlar OO‘Yu dan uning belgilangan muddatda olishini tasdiqlovchi ma’lumotnoma taqdim etishi zarur (*6)
⑥	Nomzod bitirgan OO‘Yu dan tavsiyanoma (rektor, dekan yoki ilmiy rahbaridan)	1	2	Ixtiyoriy shaklida (Namunasi bor).
⑦	Tibbiy guvohnoma	1	2	2026 y. belgilangan namunadagi blank, ingliz tilida to‘ldirilib, doctor imzosi va shifoxonaning (poliklinika) muhri bo‘lishi shart. Har qanday shifoxona (poliklinika) yoki xususiy tibbiyot markaziga murojaat qilishingiz mumkin. (*10)
⑧	Ilmiy ish konspekti	1	2	ingliz yoki yapon tilidagi tezislar, ya'ni ilmiy (diplom, kurs) ishning qisqacha mazmuni (*8)
⑨	Chet tili bo‘yicha malakani tasdiqlovchi hujjat		3	Agar mavjud bo‘lsa, chet tili bo‘yicha malakani tasdiqlovchi hujjatning 2ta nusxasi ilova qilinsin
⑩	Hozirgi ish joyidan tavsiyanoma	1	2	Faqat ishlovchi nomzodlar uchun. Ixtiyoriy shaklida (Namunasi bor).
⑪	San‘at asarlarining fotosurati yoki CD da ovoz-video yozuvi	1	2	Faqat musiqa va san‘at sohasidagi mutaxassislar uchun

*** Quydagı ko‘rsatmalarga e‘tiboringizni qaratamiz:**

1. Barcha hujjatlar qat‘ıyan ingliz yoki yapon tilida to‘ldirilgan va tuzilgan bo‘lishi lozim.
2. To‘g‘ri to‘ldirilmagan, yoki hujjatlar to‘liq topshirilmagan taqdirda, Yaponiya elchixonasi nomzodni saralashning keyingi bosqichiga o‘tkazmaslik huquqini saqlab qoladi.
3. So‘rovnomaning 1 bandida ingliz tilidagi ismi-sharifingiz, ota ismini pasport bo‘yicha yozilishi lozim. 11 bandida O‘zbekiston tizimi bo‘liyicha olingan ta‘lim ma‘lumotida «Primary Education» degan joyida 1chi sinfdan 4chi snifgacha 4 yil ko‘rsatiladi; «Lower Secondary Education» - 5chi sinfdan 9chi sinfgacha 5 yil; «Upper Secondary Education» - kollej va litseydagi 3 yil; «Tertiary(Higher) Education (Undergraduate)» - OO‘Yu dagi bakalavr o‘quv yillari; «Tertiary (Higher) Education (Graduate)» - magistraturadagi o‘quv yillari; va oxirida aspirantura yoki doktorontura o‘quv yillari ko‘rsatiladi. (ta‘til oylari qo‘shilgan holda to‘liq yil inobadga olinsin).
4. Oliy o‘quv muassasalariga taqsimlashda tadqiqot sohasi va tadqiqot rejasiga oid materiallar juda muhim bo‘lgani tufayli, tadqiqot rejasini va o‘z ixtisosni aniq bayon etilishi katta ahamiyatga ega.
5. BAHOLARI KO‘RSATILGAN DIPLOMGA ILOVA yoki har bir akademik yil uchun sinov qaydnomadan baholar ko‘rsatilgan ko‘chirmada olgan bilimlar haqida barcha ma‘lumotlari bo‘lishi shart (fakultet nomi, predmetlar nomi, har o‘quv yilning baholari). Bundan tashqari, qay usulda baholash amalga oshirilganligi ko‘rsatilishi kerak. Ingliz yoki yapon tillardan biriga tarjimasi OO‘Yu da tasdiqlanishi lozim!
6. DIPLOM NUSXASI faqat originali berilgan OO‘Yu da tasdiqlanishi lozim!
7. Ilmiy ish konspekti sifatida diplom, dissertatsiya, kurs ishning konspektini (ingliz yoki yapon tilida) topshirish mumkin. Ushbu konspekt akademik qobiliyati darajasini belgilovchi asosiy hujjati deb ta‘kidlash lozim.
8. Talab etilgan barcha hujjatlarning yuqori o‘ng burchagiga ① dan ⑪ gacha raqamlab chiqish lozim.
9. Hujjatlarni stepler bilan BIRIKTILMASLIK kerak.
10. Tibbiy guvohnomani taqdim etilgandan so‘ng sog‘lig‘ida o‘zgarishlar yuz bergan taqdirda, bu haqda darhol Yaponiya elchixonasiga xabar berishingiz shart.

O‘quv dasturlari, so‘rovnomalarni to‘ldirish va dastur bilan bog‘liq savollar tug‘ilganda Elchixonaga qat‘iy soat 09:00 dan 13:00 gacha hamda 14:00 dan 17:30 gacha, Madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limiga 78 120 80 76/60/61/62 telefoniga murojaat qilishingiz mumkin.